

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJTIMOYIY-EMOSIONAL RIVOJLANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

G.K.Mardiyeva

Toshkent menejment va iqtisodiyot
instituti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar”
kafedrası dotsenti, PhD

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-emosional rivojlanishning psixologik-pedagogik omillari, tarbiyachi kompetensiyasining mazmuni, o‘yin faoliyatining rivojlantiruvchi roli va inklyuziv ta’lim sharoitida emotsional farovonlikni ta’minlashning zamonaviy yondashuvlari ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda mahalliy va xorijiy olimlarning qarashlari solishtiriladi, amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-emotsional rivojlanish, muloqot, empatiya, boshlang‘ich ijtimoiy ko‘nikmalar.

Аннотация: В данной статье анализируются психологические и педагогические факторы социально-эмоционального развития детей дошкольного возраста, раскрывается содержание профессиональных компетенций воспитателя, роль игровой деятельности, а также современные подходы обеспечения эмоционального благополучия в условиях инклюзивного образования.

Ключевые слова: социально-эмоциональное развитие, общение, эмпатия, навыки социализации.

Abstract: The article analyzes the psychological and pedagogical factors influencing social-emotional development in preschool children. It explores teacher competencies, the developmental role of play, and modern strategies for supporting emotional well-being in inclusive educational environments. The views of national and international scholars are compared, and practical recommendations are provided.

Keywords: social-emotional development, communication, empathy, social skills.

Maktabgacha yosh davri inson rivojlanishining eng faol bosqichlaridan biri bo‘lib, bu davrda bola tevarak-atrofni idrok etadi, o‘zini anglay boshlaydi, kattalar bilan munosabatga kirishadi, his-tuyg‘ularini boshqarishni o‘rganadi. Shu sababli ijtimoiy-emosional rivojlanish pedagogikaning asosiy tadqiqot yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘riladi. L. S. Vygotskiyning madaniy-tarixiy konsepsiyasiga ko‘ra, bola shaxs sifatida shakllanishida ijtimoiy muhit hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, kattalar bilan hamkorlikda faoliyat uning psixik rivojlanishining asosiy manbaidir. Shu nuqtayi nazardan, tarbiyachi bilan bola o‘rtasidagi pedagogik muloqot bolaning emotsional barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy ta’lim tizimida “emosional farovonlik” tushunchasi bolalar salomatligining muhim ko‘rsatkichi sifatida qaralmoqda. Yuqori darajadagi emotsional farovonlik o‘z-o‘zini anglashni, ijtimoiy moslashuvni, motivatsiyani va o‘quv faoliyatiga ijobiy munosabatni

shakllantiradi. Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotlari nafaqat bilish jarayonini, balki bolaning hissiy holatini qo'llab-quvvatlaydigan tarbiyaviy muhit yaratishi zarur.

Ijtimoiy-emosional rivojlanishning ilmiy asoslari. Ijtimoiy-emosional rivojlanish bolaning tashqi muhit bilan o'zaro munosabatlarida shakllanadi. Bolaning kayfiyat, qo'rquv, ishonchsizlik yoki agressiv xulq ko'rinishlari pedagogik jarayon bilan bevosita bog'liq bo'lishi mumkin. Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasida ta'kidlanishicha, bola mikro-muhitning eng yaqin tizimlari — oila, bog'cha va tengdoshlar doirasining ta'siri ostida rivojlanadi. Shu sababli tarbiyachi faoliyati bolaga nisbatan mehribon, bag'rikeng, ishonchli bo'lishi shart. Pajaning kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bola muloqot va o'yin jarayonida atrof-muhitni biladi, o'zining ichki hissiyotlarini tashqi faoliyat orqali ifoda etadi. Emotsiyalarni anglash va nomlash jarayoni bola tafakkurining rivojlanishiga yordam beradi. Bu esa pedagoglar oldiga bolalarning his-tuyg'ularini ifodalash, tan olish va boshqarish bo'yicha maxsus sharoit yaratish vazifasini qo'yadi.

Shu nuqtayi nazardan, maktabgacha ta'lim muassasasida quyidagi omillar ijtimoiy-emosional rivojlanishning poydevorini tashkil etadi:

- emotsional xavfsizlikni ta'minlaydigan iliq muhit;
- bolani erkin fikr bildirishga rag'batlantirish;
- o'yin va muloqot imkoniyatlarini kengaytirish;
- pedagogik modellash orqali to'g'ri xulq namunalarini ko'rsatish.

Tarbiyachining pedagogik kompetensiyalari. Tarbiyachining kommunikativ va psixologik kompetensiyasi ijtimoiy-emosional rivojlanishning asosiy omillaridan biridir. Tarbiyachi bola bilan suhbatda ovoz ohangini, yuz ifodasini, tana tilini to'g'ri qo'llay olishi muhim. Montessori pedagogikasida tarbiyachi "kuzatuvchi" rolini bajaradi: u bolaga erkinlik beradi, lekin nazoratni yo'qotmaydi. Bu yondashuv bolaning o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantiradi. Tarbiyachi bola emotsiyalarini aniqlashi va talqin eta olishi, konfliktlarni konstruktiv yecha olishi, empatiya ko'nikmasini shakllantirishi, inklyuziv guruhlarda tolerant muhit yaratishi, o'yin metodlarini psixologik ehtiyojlarga mos tanlay olish kompetensiyalariga ega bo'lishi zarur. Agar tarbiyachi bolani tinglasa, uni tushunishga harakat qilsa, bolaning o'ziga bo'lgan ishonchi oshadi. Natijada, bola guruhdagi munosabatlarga faol kirisha boshlaydi.

O'yin faoliyatining rivojlantiruvchi roli. O'yin maktabgacha yoshdagi bolaning yetakchi faoliyati bo'lib, unda bola o'z his-tuyg'ularini namoyon qiladi, ularni boshqarishni o'rganadi. Rolli o'yinlar — "shifokor-bemor", "sotuvchi-xaridor", "ona-bola" — bola uchun ijtimoiy munosabatlar modeli bo'lib xizmat qiladi. Bola o'yinda boshqalarning xatti-harakatini tushuna boshlaydi, o'zini turli rollarda sinab ko'radi va empatiya shakllanadi. Sensor o'yinlar esa emotsional zo'riqishni kamaytiradi. Qum, suv bilan o'ynash, konstruktiv o'yinlar bolaning ichki hissiy holatini barqarorlashtiradi. Shu bilan birga, jamoaviy o'yinlar hamkorlik, muloqot, navbat kutish, nizolarni tinch hal qilish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi.

Inklyuziv ta'lim sharoitida ijtimoiy-emosional rivojlanish. Inklyuziv guruhlarda bolalarning psixologik ehtiyojlari turlicha bo'ladi. Shu sababli tarbiyachi guruhda qulay psixologik muhit yaratishi shart. Har bir bola o'z qadriga ega ekanini his qilishi zarur. O'quv jarayonini moslashtirish bola uchun qo'shimcha emotsional qo'llab-quvvatlash beradi.

Emotsional rivojlanishni qo'llab-quvvatlashning samarali usullari:

- “Emotsiyalar kartasi” orqali his-tuyg'ularni nomlash;
- tinchlantiruvchi burchaklar — sensor zonalar yaratish;
- individual rag'bat tizimi;
- kichik guruhlarda muloqot vazifalari;
- tarbiyachi tomonidan modellashgan nutqiy yondashuv.

Inklyuziv ta'limda asosiy tamoyil — “har bir bola qadrli” tamoyilidir. Agar bola o'zini qabul qilingan deb his qilsa, uning hissiy moslashuvi tezlashadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishi ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, u bolaning kelajakdagi shaxs sifatida shakllanishida muhim o'rin tutadi. Ta'lim tashkilotida yaratilgan emotsional muhit, tarbiyachining kompetensiyasi, o'yin jarayonining to'g'ri tashkil etilishi va inklyuziv yondashuv bolaning psixologik farovonligini ta'minlaydi. Demak, ijtimoiy-emotsional rivojlanishni qo'llab-quvvatlash pedagogik jarayonning markazida bo'lishi lozim. Bu esa tarbiyachidan yuqori darajadagi sezgirlik, psixologik bilim, muloqot madaniyati va ijodiy yondashuvni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq. — Toshkent: Fan, 1992.
2. Montessori M. The Absorbent Mind. — Oxford: Clio Press, 1995.
3. Piaget J. The Psychology of the Child. — New York: Basic Books, 1969.
4. Qodirova F.R, Toshpulatova Sh.Q, Kayumova N.M, A'zamova M.N, “Maktabgacha pedagogika”, Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2019. Darslik.
5. Vygotskiy L. S. Psixologiya razvitiya rebenka. — Moskva: Pedagogika, 1984.